

## QISHLOQ XO'JALIGIDA AGROKLASTERLARINI BARPO ETISHNING XORIJ TAJRIBALARI

**Rashidov Raximjon Iskandarovich**

*QarMII "BHvaA" kafedrası katta o'qituvchisi*

### ARTICLE INFO.

#### **Kalit so'zlar:**

Klaster, agroklaster, qishloq xo'jaligi, paxta-to'qimachilik klasterlari, integratsiya, fermer xo'jaligi, raqobatbardoshlik, qishloq xo'jaligi texnikalari.

### Annotatsiya

Maqolada qishloq xojaligi agroklasterlarini barpo etishning xorij tajribalari bo'yicha nazariy-uslubiy asoslar tahlili bayon qilingan bo'lib, milliy iqtisodiyotda ushbu yo'nalishda amalga oshirilayotgan ishlar, mavjud muammolar va ularning yechimlari yuzasidan taklif-tavsiyalar yoritilgan.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2022 LWAB.

**Kirish.** Dunyo xo'jaligida kuzatilayotgan nafaqat iqtisodiy osish, fan-texnika taraqqiyoti, balki, kutilmagan tahlikali holatlar hamda siyosiy vaziyatlar mamlakatlar iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda puxta ishlangan va ilmiy asoslarga ega taraqqiyot strategiyalariga nisbatan ehtiyojlarning oshishiga olib keladi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" aynan yuqorida qayd etilgan talablar darajasida tayyorlangan taraqqiyot strategiyasiga misol bo'ladi. Chunki, "iqtisodiyot tarmoqlarida barqaror yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash orqali kelgusi besh yilda aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulotni – 1,6 baravar va 2030 yilga borib aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadni 4 ming AQSH dollaridan oshirish hamda "daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar" qatoriga kirish uchun zamin yaratish" [1;11] asosiy maqsad sifatida belgilangan. Aynan ushbu maqsadga erishishda milliy iqtisodiyotimizda o'z o'rnini va salohiyatiga ega bo'lgan qishloq xo'jaligida agroklasterlarni tashkil etish va faoliyati samaradorligini ta'minlash dolzarb masala hisoblanadi. Chunki, bugungi kunda milliy iqtisodiyot darajasida tarmoqda 3-4 bosqichli qayta ishlashdan o'tgan, tayyor mahsulotlar yaratish va xizmatlar ko'rsatishda ishtirok etuvchi hududiy yoki tarmoqlararo kesimdagi "yagona texnologik zanjir"ga bog'langan barcha ishlab chiqaruvchi (xizmat ko'rsatuvchi) larni o'z ichiga olgan agroklasterlar iqtisodiy jihatdan samarali hisoblanadi. Aynan, 2022 yil 10 martda "Cotton Campaign" xalqaro koalitsiyasi O'zbekistonga nisbatan qo'yilgan "paxta boykoti" bekor qilinganligini rasman e'lon qilganligi agroklasterlar, xususan, "Paxta-to'qimachilik" klasterlari faoliyatini yanada rivojlantirish hamda kengaytirish imkoniyatlarini yuzaga chiqarmoqda.

**Adabiyotlar sharhi.** 2020 yilda kuzatilgan global pandemiya hamda iqlim O'zgarishlarining keskinlashuvi qishloq xojaligi ishlab chiqarishida mehnat unumdorligini oshirish, bir necha bosqichli

qayta ishlashlardan o'tgan tayyor, raqobatbardosh, eksportbop mahsulotlarni tayyorlashda tarmoqda hozirda innovatsion taraqqiyotga o'tishning yangi iqtisodiy tuzilmasi bo'lgan agroklasterni tashkil etishda xorij tajribalarini tadqiq etish ilm ahli oldida turgan ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Ushbu yo'nalishdagi xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan olib borilayotgan ilmiy ishlar va nashrlar tahlilidan ko'rinadiki, "Klaster nazariyasi" ning asoschilaridan biri bo'lgan M.Porter raqobatbardosh, bir tarmoqqa tegishli korxonalarining turli mamlakatlarda tarqoq joylashganligini, ularning bir mamlakat, qolaversa, ma'lum bir mintaqada to'planish xususiyatiga ega ekanligini o'z ilmiy asarlarida [2] asoslab bergan. Xususan, sanoat va boshqa tarmoqlardagi klasterlar faoliyati o'rganilganda, klaster tizimidan tashqaridagi tarmoqlarga nisbatan klasterlarda raqobatda ustunlik hamda ular joylashgan mintaqalar aholisining turmush darajasi yuqori ekanligi aniqlangan. M. Porterning fikriga ko'ra [3] "mamlakat raqobatbardoshligini alohida firmalarning emas, balki turli tarmoqlarga oid firmalar birlashmasi klasterlarning xalqaro raqobatbardoshligi prizmasi orqali ko'rish maqsadga muvofiq, xususan, mana shu klasterlarning ichki resurslardan samarali tarzda foydalana olish qobiliyati muhim ahamiyat kasb etadi".

Raqobatbardoshlikni qaror toptirish bo'yicha iqtisodiy jarayonlarni o'rganishga klasterli yondashuv boshqa qator nazariyalarda ham qo'llaniladi. Masalan, YE.Lyumer [4] milliy darajadagi savdoni tahlil qilish davomida eksport darajasi yuqori bo'lgan klasterlarni o'rgangan bo'lsa, I. Tolenado va D. Solye texnologik sohalarning guruhlariga ta'rif berishda "filyerlar" tushunchasidan foydalanganlar [5]. V. Feldman tomonidan ishlab chiqilgan nazariyaning afzal tomoni shundaki [6], u turli mamlakatlardagi diversifikatsiyalangan shakldagi korxonalarini keng ko'lamda empirik tadqiq qilishga asoslanadi.

Bir guruh amerikalik olimlar, jumladan M.Yenrayt, S.Rezenfeld, P.Maskell, A.Marshall, M.Storper va boshqalarning klaster haqidagi nazariyalarida [7] klaster — hududdagi ta'lim, fan, texnologik, iqtisodiy va boshqa xizmat ko'rsatuvchi subyektlar faoliyati bilan uyg'unlashgan tizim ekanligi hamda ishlab chiqaruvchilarning raqobatda ustunligini ta'minlashi ko'rsatilgan. J.Danning, K.Brimen va boshqa britaniyalik olimlarning nazariyalarida klaster — o'zaro hamkorlikdagi institutlar tizimi ekanligi qayd etilgan. Migranyan A.A.ning fikricha [7], klaster "iqtisodiy faoliyatning nisbatan samarali va bir-biri bilan bog'liq turlarining majmui, ya'ni muvaffaqiyat bilan raqobat qiluvchi o'zaro bog'liq guruhlar to'plami bo'lib, tarmoq, milliy va jahon bozorlarida raqobatchilik vaziyatini ta'minlab beradi". Dunyo xo'jaligida rivojlangan mamlakatlar tajribasi ko'rsatadiki, klasterlar amaliyoti iqtisodiy rivojlanish, investitsion faollikni oshirish, sog'lom raqobat muhitining shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Nazariy manbalar tahlildan ko'rinadiki, klaster mexanizmidan foydalanish bugungi kunga kelib, dunyoning yetakchi mamlakatlarida iqtisodiyotning deyarli 50 foizini egallagan. M.Porter va M.Yenraytlarning klasterlashgan mintaqalar korxonalarida mehnat unumdorligi 1,5 barobargacha, ish xaqi esa 30 foizgacha ko'p bo'lishi, ishlab chiqarish va ilmiy izlanish bilan shug'ullanadigan xodimlarning mehnatlarini yanada ko'proq rag'batlantirishga va raqobatbardosh tovarlarni yaratish uchun imtiyozli sharoitlarning mavjud bo'lishi kabi klaster mexanizmining ustuvor tomonlarini ko'rsatishgan.

Xususan, Daniya, Gollandiya, Belgiya, Kanada, Finlyandiya, shuningdek, Janubiy Afrika, Fransiya va Italiya kabi davlatlar klaster tashabbuslarini muvaffaqiyatli amalga oshiruvchi davlatlar hisoblanadi [8].

Mahalliy olimlarimizdan A.M.Qodirov [9], T.T.Jo'rayev, M.E.Hamidovning [10] ilmiy nashrlarida O'zbekistonda agrosanoat klasterlarini rivojlantirish va unda xorijiy tajribalariga bag'ishlangan masalalar ilmiy jihatdan bayon qilingan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqot ilmiy izlanishlarga asoslangan bo'lib, unda abstraksiya, analiz va sintez metodlari orqali tahlil qilingan. Shuningdek, deduksiya usuli orqali davlatning klasterlar borasidagi iqtisodiy siyosati yoritilgan.

**Tahlil va natijalar.** Milliy iqtisodiyotda agroklasterni tashkil etishda uning tashkiliy-huquqiy asoslarini shartli ravishda 2 guruhga ajratish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

1. Bir turdagi bir necha bosqichdan o'tgan tayyor mahsulot tayyorlashga ixtisoslashgan agroklastarlarni tashkil etilishiga mo'ljallangan tashkiliy-huquqiy asoslar;
2. Bir necha turdagi ishlab chiqarishga ixtisoslashgan agroklastarlarni tashkil etishga mo'ljallangan tashkiliy-huquqiy asoslar.

Tadqiqotlarimiz ko'rsatadiki, shakli va ixtisoslashuvidan qat'iy nazar har qanday agroklastarlarning samaradorligi uning tashkiliy-huquqiy asoslariga bog'liq. Xususan, birinchi guruhga mansub bo'lgan agroklastarlarga "Paxta-to'qimachilik klasterlari"ni misol tariqasida ko'rsatish mumkin. Aynan ushbu yo'nalishdagi agroklastarlarning tashkiliy-huquqiy asoslarida agroklastarlarni moddiy texnika ta'minotini barpo etish, ulardan foydalanish samaradorligini oshirish mexanizmlari ustuvor ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining **"Paxta-to'qimachilik ishlab chiqarishlari va klasterlari faoliyatini tashkil etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"**gi Qarori O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2017 yil 14 dekabrda PF-5285-sonli Farmonining o'z vaqtida bajarilishini ta'minlash, paxta-to'qimachilik ishlab chiqarishini tashkil etishning zamonaviy shakllarini joriy qilish, paxta-to'qimachilik ishlab chiqarishi hududida joylashgan paxta tozalash korxonalarini va paxta tayyorlash punktlarining ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali foydalanishning huquqiy asosi hisoblanadi. Mazkur huquqiy asosga ko'ra, paxta-to'qimachilik ishlab chiqarishlari va klasterlari hududida joylashgan 16 ta paxta tozalash korxonasi va 68 ta paxta tayyorlash punkti xatlovdan o'tkazilib, ularning holati baholangan va 2017 yil 14 dekabrda PF-5285-son Farmoni bilan tashkil etilgan Paxta-to'qimachilik klasterlarini o'rta muddatli istiqbolda rivojlantirish konsepsiyasiga asosan, paxta-to'qimachilik ishlab chiqarishlari va klasterlari hududida joylashgan paxta tozalash korxonalarini va paxta tayyorlash punktlarining bino hamda inshootlarini ularning tashkilotchilariga 5 yil muddatga, bo'lib to'lash sharti bilan baholash qiymatida sotish; agroklastarlarni tashkilotchilari tomonidan ularning hududida joylashgan paxta tozalash korxonalarining ishlab chiqarish quvvatlaridan 2018 yilda paxta xom ashyosini qaytarib berish va ijara asosida qayta ishlash uchun foydalanish to'g'risidagi masalalarni paxta tozalash korxonalarini aksiyadorlarining umumiy yig'ilishlarida ko'rib chiqish uchun kiritish tavsiya etilgan. Ushbu huquqiy asosga ko'ra, paxta tozalash korxonalarini va paxta tayyorlash punktlarining bino hamda inshootlari paxta-to'qimachilik ishlab chiqarishlari hamda klasterlari tashkilotchilariga ishlab chiqarishni 2 yildan ortiq bo'lmagan vaqt davomida modernizatsiyalash sharti bilan sotilishi belgilangan. Shuningdek, paxta tozalash korxonalarini va tayyorlov punktlarining ishlab turgan uskunalari va boshqa asosiy vositalari paxta-to'qimachilik ishlab chiqarishlari hamda klasterlari tashkilotchilariga modernizatsiyalash amalga oshiriladigan davrgacha ijaraga berilish amaliyoti mavjud. Ammo, tahlillarimiz ko'rsatadiki, "Paxta-to'qimachilik" klasterlarini moddiy texnik ta'minotida o'ziga xos muammolar kuzatiladiki, bu holat texnikalar bilan ta'minlanish darajasining belgilangan darajadan past bo'lishiga olib kelmoqda. Natijada samaradorlik ko'rsatkichlarini oshirish imkoniyatlaridan to'liq foydalanilmayapti. Ma'lumki, klasterning tarkibiga kirgan xo'jalik yurituvchi subyektlar o'zlarining iqtisodiy va moliyaviy mustaqilligini yo'qotib, faqat ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) mustaqilligini saqlab qoladi. Ushbu holat bir turdagi bir necha bosqichdan o'tgan tayyor mahsulot tayyorlashga ixtisoslashgan agroklastarlarni tashkil etilishda moddiy texnika ta'minoti masalasi ustuvorlik qilishini asoslaydi. Masalan, Qashqadaryo viloyatida mavjud bo'lgan "Paxtachilik to'qimachilik" klasterlarida 12931 dona qishloq xo'jaligi texnikalari va agregatlar talab etiladi, ammo ularning mavjudligi 7337 tani tashkil etadi va ta'minlanish darajasi 57 foizni tashkil qiladi. Hisoblarimiz ko'rsatadiki, mavjud qishloq xo'jaligi texnikalari va agregatlarining faqat 21 foizigina viloyat klasterlari balansida mavjud bo'lib, 79 foizi boshqa balanslar hissasiga to'g'ri keladi. Ushbu holat ayni klasterlarda paxta xom ashyosini yetishtirishda tashkiliy muammolarning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi.

**XULOSA.** Aynan, milliy iqtisodiyotda zamonaviy moddiy texnika ta'minotiga ega bo'lgan "Paxta-to'qimachilik" klasterlarini tashkil etishda xorijiy tajribalarni tadqiq etish va ularning samarali usullaridan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bunda agroklastarlarga xorijiy investorlarni

jalb etish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Chunki, xorijiy investorlarning moddiy investitsiyalari "Paxta-to'qimachilik" klasterlarini moddiy texnika ta'minotini yaxshilash va modernizatsiyalash imkoniyatini yanada oshiradi.

№	Paxta-to'qimachilik klasterlari nomi	Talab etiladigan texnikalar soni	Mavjud q/x texnikalari va agregatlar soni	Shundan		Texnikalari bilan ta'minlash darajasi, (%)	2022 yilda sotib olinadigan texnikalari, agregatlar
				Klaster balansi da	Boshqa balans - dagilar *		
1	"Kitobipyigiruv" AJ	611	445	96	349	73%	35
2	"QarshiAgroklaster" MCHJ	653	822	84	738	126%	168
3	"Cluster Khilal" MCHJ	461	65	32	33	14%	0
4	"Beshkent Agrocluster" MCHJ	461	69	53	16	15%	12
5	"Oqsaroy textile" MCHJ	503	58	7	481	12%	202
6	"Qamashi textile" MCHJ	342	50	21	29	15%	56
7	"Koson Baxt Tekstil" MCHJ	1361	381	12	369	28%	158
8	"Bunyodkor" MCHJ	678	499	99	400	74%	175
9	"EMGINTERINVESTMENT" MCHJ	855	500	195	305	58%	107
10	"Litai textile Overseas" MCHJ	693	578	133	445	83%	86
11	"Mirishkor TGC" MCHJ	934	718	66	652	77%	175
12	"Original Cotton Mirishkor" MCHJ	167	24	24		14%	0
13	"Indorama Agro" MCHJ	1626	848	113	735	52%	75
14	"Indorama Agro" MCHJ	1047	922	122	800	88%	111
15	"Naxshab TexGroup" MCHJ	315	180	115	65	57%	0
16	"Kainvest Claster" MCHJ	363	43		43	12%	0
17	"Chiroqchi klaster" MCHJ	771	688	146	542	89%	71

18	"Oqsaroy klaster" MЧЖ	404	265	91	174	66%	75
19	"Oqsaroy klaster" MЧЖ	686	181	107	74	26%	97
	ЖАМИ:	12931	7336	1516	6250	57%	1603

### 1-jadval. Qashqadaryo viloyatidagi paxta-to'qimachilik klasterlarining mavjud hamda yangi sotib olinadigan qishloq xo'jalik texnikalari va agregatlari to'g'risidagi ma'lumotlar tahlili<sup>1</sup>

Chunki, xorijiy investorlarning faoliyati nafaqat foyda ko'rishga, balki ixtiyoriylik va manfaatdorlik tamoyiliga asoslanganligi mahalliy agroklasterni zamonaviy innovatsion texnologiyalarni olib kirish imkonini beradi. Bu holat agroklasterni tayyorlangan mahsulotlarni eksportbopligini oshirish va eksport qilish salohiyatini oshiradi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son Farmoniga 1-ilova, 21-maqсад, 11-bet.
2. Портер М. Конкуренсий. Перевод с англ. – М., Издательский дом «Вильямс», 2000, - 485 с
3. Портер М. Международная конкуренция: /Пер. с англ. / Под ред. и с предисловием В.Д. Шетинина. – М.: Междунар. отношения, 2005. – 859 с
4. Leamer E.E. Sources of International Comparative Advantage: Theory and Evidence / Cambridge, MIT Press, 1984.
5. Toleno J.A., Propjs des Filires Industrielles. - Revue d'Economie Industrielle. - V. 6. - 1978. - № 4. - P. 149-158; Soulie D. Filieres de Production et Integration Vertical. - Annales des Mines, Janvier 1989.- P. 21-28.
6. Feldman V. P., Audretsch D.B. Innovation in Cities: Science based Diversity, Specialization and Localized Competition European Economic Review. - 1999. - № 43. - P. 409-429.
7. Jo'rayev T.T., Hamidov M.E. O'zbekistonda agrosanoat klasterlarinig rivojlanishi va ularning qishloq xo'jaligi taraqqiyotida tutgan o'rni. "Xalqaro moliya va hisob" ilmiy elektron jurnali. № 2, aprel, 2019 yil, 2- bet.<sup>1</sup>
8. Сихан В. Кластерная теория экономического развития // Теория и практика управлений. –М.: 2003. – № 59.
9. Qodirov A.M., Axmediyeva A.T. Agroklasterni rivojlanishining xorij tajribasi va uni O'zbekiston sharoitiga moslashtirish imkoniyatlari Klasterlarni rivojlantirishni bo'yicha uslubiy mintaqaviy xususiyatlari. Qishloq xo'jaligida klaster tizimini rivojlantirish: tajribalar, natijalar va istiqbolli yo'nalishlar. Iqtisodiyot va ta'lim / 2020 № 3, 224-231 b.,
10. Jo'rayev T.T., Hamidov M.E. O'zbekistonda agrosanoat klasterlarinig rivojlanishi va ularning qishloq xo'jaligi taraqqiyotida tutgan o'rni. "Xalqaro moliya va hisob" ilmiy elektron jurnali. № 2, aprel, 2019 yil, 1-7 betlar.

<sup>1</sup> Muallif tomonidan mavjud ma'lumotlar asosida tizimlashtirilgan va hisob-kitob qilingan.